

Odamlarni koʻrdim ustida libosi yoʻq, Liboslarni koʻrdim ichida odami yoʻq

Hayot... U inson atalmish moʻjizaga bir bora inʼom etiladi. Uni qanday yashab oʻtishi har kimning oʻziga bogʻliq. Bu hayot turli imtihon-u sinovlarga toʻla. Unda kimdir gʻolib, kimdir magʻlub doimo. Mashaqqatlarga sabr-la dosh bergan inson har doim gʻolib, oshigʻi olchi, mening nazarimda. Odam qanday qiyinchilikka duch kelmasin, chin insoniylik tuygʻularidan voz kechmagan holda yashashi kerak, menimcha.

Insonning obroʻyi tillo-yu zar, toʻplagan boyligi, qurgan imoratlari, ustidagi qimmatbaho liboslari bilan belgilanmaydi. Qimmatbaho kiyimlarga, zarbof choponlarga oʻrangan inson komil inson degani emas. Agar unda oʻzgalar baxt-u kamolidan sevinish, birovlar yordamga muhtoj boʻlganda koʻmak qoʻlini uzata olish, saxovatpeshalik, mehr-oqibat, iymon va adolat kabi sifatlar boʻlmasa, inson degan nomga noloyiqdir. Aksincha, usti yupun boʻlsa-da, bagʻri butun, iymoni mustahkam, qoʻlida borini muhtojlarga ulashadigan insonni tom maʼnoda Hazrati Inson deyish mumkin. Bundaylar garchi hayotda kam uchrasa-da, yaxshilikning yomonlik ustidan, adolatning nohaqlik ustidan, chin, haqiqiy narsalarning soxtalik ustidan qiladigan gʻalabasiga ishora, nazarimda.

Hayotda shunday insonlarni uchratganmanki, erishgan mansabi, toʻplagan boyligi ularga magʻrurlik libosini kiygizib qoʻygan. Ilmiy daraja-yu unvonlari soxtalik libosiga oʻragandek goʻyo. Yasama kulishlar, samimiylikdan yiroq, xushomadnamo gapirishlar, ovoziga jiddiy tus berib nutq soʻzlashlar ularning aslida kim ekanligini yashirishi kerakdek goʻyo. Men bunday insonlardan uzoqroq yurishni afzal bilaman, zeroki bu foniy dunyo oʻz zeb-u ziynatlari bilan ularni aldab, bunday kimsalarga doʻzax tomon yoʻl ochilayotganini eslatish uchun berilgandek...

Ust-boshi koʻzga tashlanmasa-da, qalbi Alloh muhabbati bilan limmo-lim toʻlgan insonlarni bilamanki, keksalik davrlarida ularning farzandlari yuksak natijalarga erishib, ota-onasining armonlarini ushaltirayotganiga guvohman. Bu Allohning inoyati, sabrning, yuksak insoniy fazilatlarining mukofoti emasmi?!

Chiqqan quyoshning botishi bor, deydi dono xalqimiz. Mansab-u boylik, chiroyli liboslar qo‘ldan ketishi ham bor, ammo insoniylik, yaxshi so‘z, qilingan yaxshilik unutilmaydi. Odamiylik libosi bilan pardozlangan inson u dunyo-yu bu dunyoda sharaflanadi. Tashqi ko‘rinishga e‘tibor qaratgan odam esa xorlik, zulm ko‘chasidan o‘tishi tayin.

D.Ahmedova